

NAM SALFETKALAR ISHLAB CHIQRARISH LOYIHASI





Nam salfetkalar ishlab chiqarish loyihasi

F.Rashidov, – Toshkent, 2024.

O'quv qo'llanma "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB va "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ muassisligida tayyorlandi, hamda nashr ettirildi.

Muallif

Rashidov F.I - Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi, O'qitish ishlarini tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Loyiha ishtirokchilari:

Otamurodov J.Y, Babamuhamedov A.A. va Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimlari.

Taqrizchi:

Rizaev N.K - O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi, "Buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, iqtisod fanlari doktori.

Tahrirchi:

Narxujayeva D.B - Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimi

Ushbu o'quv qo'llanma Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi ijro organi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan.

**O'quv qo'llanma Biznesni Rivojlantirish Banki va
Kichik Biznesni Rivojlantirish Jamg'armasi tuhfası hisoblanadi.**

© "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB - 2024

© "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ - 2024

Mazkur o'quv qo'llanma kichik biznes tadbirkorlari uchun asosiy o'quv adabiyoti sifatida xorijiy tajriba asosida tayyorlangan bo'lib, undan kichik biznes tadbirkorlari o'z biznes loyihalarini tashkil etish uchun dastur sifatida foydalanishlari mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanma Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoat Rivojlanishi Tashkiloti (UNIDO) talablari asosida tuzilgan bo'lib, undan 60411300-"Biznesni boshqarish" (Bakalavriat), 70411301-"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish" (Magistratura), hamda 08.00.15-"Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" (Doktorantura) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar va ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan mustaqil izlanuvchilar ham o'quv qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanmada loyihani tashkil etish, biznes yuritish, loyihani boshqarish, loyiha menejmenti va marketingi, loyihaning texnik jihatları, texnologik jihozlar va texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish rejasi, ta'minot rejasi, HR-rejasi, moliyaviy rejasi, loyihaning zararsiz ishlash nuqtasi, loyiha rentabelligi, NPV va IRR koeffitsiyentlari, loyihani o'zini-o'zi qoplash muddati masalalari yoritib berilgan.



HURMATLI BIZNES VAKILLARI!

Ma'lumki, kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir.

Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda mikro-biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikro-biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltiryapmiz. Natijada bugun har bir mahallada kamida 40-50 nafar yangi tadbirkor paydo bo'lib, minglab doimiy ish o'rinlari yaratilmoqda. Lekin kichik biznesni manzilli qo'llab-quvvatlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bunday muhit hali to'liq shakllanib ulgurmas, desak, adolatdan bo'ladi.

Biz yil boshida kichik biznes toifasiga kimlar kirishini aniq belgilab oldik. Endi kichik tadbirkorlarning "oyoqqa turib olishi" va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etamiz. Bunda ushbu soha vakillarini tadbirkorlikka o'qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sheriklar topish bo'yicha yaxlit eko-tizim yaratiladi.

Buning uchun, eng avvalo, "Qishloq qurilish bank"ni "Biznesni rivojlantirish banki"ga aylantiramiz. Ushbu yangi bankning faoliyati ham, ishlash uslubi va moliyalashtirish mexanizmlari ham yangicha bo'ladi. Jumladan, bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazi tashkil etiladi.

Markazlar esa tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashadi, o'z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo'lgan

tadbirkorlarni o'qitadi, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qiladi, tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, hududlardagi Kichik biznes markazlarida o'qigan tadbirkorlarning loyihalarini eng qulay shartlar asosida moliyalashtirish yo'lga qo'yiladi.

Uchinchidan, Kichik biznes markazlari ko'magida loyiha tashabbuskori va yirik davlat loyihalari bilan kooperatsiya aloqalari o'rnatiladi. Bunda yangi loyihalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, xodimlar malakasini oshirish va mahsulotini realizatsiya qilishga Markazlar yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu loyihalarga davlat xaridlari tizimida o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni 2 yil davomida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan sotishga ruxsat beriladi.

To'rtinchidan, Kichik biznes markazlarini boshqarishga xususiy sheriklar jalb qilinadi. Ushbu tadbirkorlarga "Biznesni rivojlantirish banki"ga hissador bo'lib kirish huquqi beriladi.

Beshinchidan, yangi tizimni joriy etish bo'yicha alohida qonun ham qabul qilamiz. Bunda markaz bilan hamkorlikda kichik biznes loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq barcha jarayonlar soddalashgan tartibda belgilanadi.

Maqsadimiz – bir yil ichida kamida 150 mingta kichik biznes subyektini "oyoqqa turg'izish", kamida 25 mingtasini o'rta loyihalarga aylantirish, sohada 250 mingta yangi doimiy ish o'rni yaratishdan iborat.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz
tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan
uchrashuvidagi nutqidan**

18.08.2023



MUNDARIJA

Moliyaviy termin va atamalarning glossariyasi.....	8
1. Loyiha maqsadi.....	10
2. Loyiha tashabbuskori.....	12
3. Loyiha strategiyasi.....	14
4. Mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish.....	16
4.1. Mahsulot haqida.....	17
4.1. Ishlab chiqarish uchun xom-ashyo tanlash.....	26
4.2. Texnologiya va rejalashtirish.....	28


5. Infrastruktura.....	34
6. Marketing konsepsiyasi.....	38
7. Ishlab chiqarish rejasi.....	40
8. HR rejasi.....	42
9. Moliyaviy reja.....	44
9.1. Loyihani amalga oshirish uchun olinadigan kredit shartlari.....	46
10. Xulosalar.....	48
11. Loyihasining hisob-kitob qismi.....	50

MOLIYAVIY TERMIN VA ATAMALARNING GLOSSARIYASI

Atama nomi	Kengaytmasi	O'zbek tilidagi ma'nosi
PV	Present Value	Kelajakdagi pul oqimlarining joriy qiymatini aniqlash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.
NPV	Net Present Value	Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich yillar davomidagi pul oqimlarini joriy qiymati va biznesga kiritilgan sarmoyaning farqi sifatida aniqlanadi.
IRR	Internal Rate of Return	Investitsiyalarning ichki daromadlilik darajasi (IIDD) yoki ichki rentabellik darajasi potensial investitsiyalar rentabelligini baholash uchun moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichdir. IRR diskontlangan pul oqimlarini tahlil qilishda barcha pul oqimlarining sof joriy qiymatini (NPV) nolga tenglashtiradigan diskont stavkasi.
Diskontsiz kummulyativ saldo		Pul oqimini boshqarish va moliyaviy rejalashtirishda qo'llaniladigan o'lchovdir. Bu ko'rsatkich pul oqimlarini ma'lum bir muddatga qoldig'ini ko'rsatadi.
Diskontli kummulyativ saldo		Diskontni hisobga olgan holda jamlangan qoldiq - bu diskont stavkasini hisoblaganda har bir kichik davr oxirida to'plangan pulning umumiy miqdorini baholash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.



1. LOYIHA MAQSADI



1. LOYIHA MAQSADI

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi nam salftkalar ishlab chiqarishni tashkil etishdan iborat. Bundan tashqari, loyihani ishga tushirish orqali respublika aholisining ushbu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, hamda yangi ish o'rinlari tashkil etish, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish uchun imkoniyatlar yaratish maqsad qilingan.

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun, investitsion davrda nam salftkalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida, umumiy qiymati 900 mln. so'm miqdorida investitsiya (bundan 600 mln. so'm bank krediti) mablag'larini jalb qilish rejalashtirilgan.

(ming so'mda)

Nomi	Summa	Loyihada ishtirok etish			
		Kredit	%	O'z mablag'lari	%
Nam salftka ishlab chiqarish uskunalar to'plami	650 000	600 000	92%	50 000	8%
Qadoqlash uchun rang qoliplari	1 000	-	0%	1 000	100%
Ishlab chiqarish binosini qurilish montaj ishlari	19 000		0%	19 000	100%
Jami asosiy vositalar	670 000	600 000	90%	70 000	10%
Aylanma mablag'lar	122 000		0%	122 000	100%
Investitsion davrdagi kredit foizlari	108 000		0%	108 000	100%
Jami	900 000	600 000	67%	300 000	33%

Loyiha tashabbuskoriga ushbu loyihani amalga oshirish xalqaro standartlarga javob beradigan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

2. LOYIHA TASHABBUSKORI



2. LOYIHA TASHABBUSKORI

Loyiha tashabbuskorining asosiy faoliyat turiga – nam salftkalar ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan va tashkilot ustaviga muvofiq boshqa faoliyat turlari kiradi.


Loyiha tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab tadbirkorlik subyekti hisoblanadi.

Loyiha tashabbuskori xo'jalik faoliyatini o'zini-o'zi ta'minlash va moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi bank muassasalarida milliy va chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

Loyihaning joriy faoliyatini boshqarish nafaqat menejment sohasida, balki ishlab chiqarish sohasida tajribaga ega bo'lgan direktor tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.



3. LOYIHA STRATEGIYASI



3. LOYIHA STRATEGIYASI

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarning asosiy vositalaridan biri iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha davlat siyosati hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda juda qulay investitsion muhit yaratildi, bu birinchi navbatda, har qanday strategik investor uchun muhim bo'lgan siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan tavsiflanadi.

Kichik biznesni rag'batlantirishning mavjud choralari va kichik biznes loyihalariga imtiyozlar berilishi loyihani yaratishning asosiy sabablari sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Ushbu loyiha doirasida loyiha tashabbuskorining strategik maqsadi ushbu biznes loyiha uchun qulay hududda nam salfetaklar ishlab chiqarishni tashkil etishdir.



4. MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHNI TASHKIL QILISH



4.1. MAHSULOT HAQIDA

Nam salftkalar hayotimizga qanday kirib kelgan va qanday qulayliklar olib kelgan? Nam salftkalar gigiyena va tozalikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Ular bilan tozalash tez va qulay bo'lganligi uchun, kasalliklarning tarqalishini kamaytirishga ham yordam beradi. Ayniqsa, kichik bolalarni parvarish qilishda va qo'llarni tozalashda qulayligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Nam salftkalar bakteriyalar va mikroblarni yo'q qilishda samarali bo'lgani uchun infeksiyalarni kamaytirishga ham yordam berdi.

Qanday qilib nam salftkalar epidemiyaga qarshi kurashda yordam berdi?

Nam salftkalar epidemiyaga qarshi kurashda bir necha yo'llar bilan yordam berdi. Ularning gigiyenani ta'minlashdagi roli epidemiyalarni oldini olishda va tarqalishini cheklashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Quyida ularning qanday yordam berganiga ba'zi misollar keltirilgan.



Qo'l gigiyenasini ta'minlash

• Nam salftkalar qo'llarni tez va samarali tozalash uchun juda qulay. Ko'plab epidemiyalar qo'l orqali yuqadigan mikroblar tufayli tarqaladi. Nam salftkalar bilan qo'llarni tozalash mikroblarni yo'q qilishda va kasallik tarqalishini kamaytirishda yordam berdi.

• Sayohat va tashqi muhitda gigiyena: jamoat joylari, sayohat va boshqa tashqi muhitlarda qo'llarni tozalash imkoniyatini yaratib, mikroblarni yoyilishiga to'sqinlik qildi.

Yuzalarni tozalash

• Dezinfeksiya qilish: ko'plab nam salftkalar antibakterial va antiseptik xususiyatlarga ega bo'lib, mikroblarni samarali yo'q qiladi. Bu kasalxonalarda, maktablarda va jamoat joylarida yuzalarni tozalashda yaxshi samara beradi.

Bolalar va immuniteti past odamlar parvarishi

• Nam salftkalar bolalar parvarishida juda muhim rol o'ynaydi. Bolalarning immuniteti hali to'liq rivojlanmagan bo'lib, ularni mikroblardan himoya qilish darkor. Nam salftkalar bolalar parvarishida gigiyenani saqlashda yordam beradi.

• Immuniteti past odamlar, masalan, keksa yoshdagilar yoki kasal bo'lgan odamlar, nam salftkalar orqali gigiyenani saqlash orqali infeksiyalardan himoyalanihlari mumkin.

Kasalxonalar va tibbiy muassasalarda qo'llanilishi

• Kasalxonalar va tibbiy muassasalarda nam salftkalar gigiyena va tozalikni saqlashda keng qo'llaniladi. Ular shifokorlar, hamshiralar, bemorlar uchun tez va samarali tozalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

• Tez tibbiy yordam ko'rsatuvchi joylarda nam salftkalar tez tozalash va dezinfeksiya qilish uchun ishlatiladi, bu esa kasalliklarning tarqalishini oldini olishda yordam beradi.

Nam salftkalar gigiyena va tozalikni ta'minlashda samarali bo'lgani uchun, ular epidemiyalar paytida kasalliklarning tarqalishini kamaytirishga yordam berdi. Bu ularni nafaqat uy sharoitida, balki jamoat joylari va tibbiy muassasalarda ham muhim vosita sifatida qabul qilinishiga olib keldi.

Doimiy talabga ega bo'lgan va yozda ham, qishda ham mashhurligini yo'qotmaydigan ushbu mahsulot har doim boshlovchi tadbirkor uchun bitta kamchilikka ega. Gap mavjud raqobatchilarning ko'pligi va bozorga kirish qiyinligi haqida bormoqda. Sotish narxlarini o'zingizning imkoniyatlaringizga moslashtirishning iloji yo'q, siz doimo



o'rtacha bozor ko'rsatkichlariga e'tibor qaratishingiz, sifat va narx bo'yicha raqobatchilardan kam bo'lmasligingiz kerak, shuningdek, har doim xarajatlarni kamaytirishning turli usullarini va yangi tarqatish kanallarini doimiy ravishda izlashingiz kerak.

Boshqa tomondan, bu qanchalik qiyin bo'lmasin, bunday sohalar ko'plab ishbilarmonlar, shu jumladan daromadli biznesga

o'z kuchlari va mablag'larini sarflashga tayyor bo'lgan yangi boshlovchi tadbirkorlar uchun jozibador soha bo'lib qolmoqda. Bir qarashda, nam salftkalar kuchli qiymatga ega emasdek tuyulishi mumkin. Ammo statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholining juda katta qismi ushbu gigiyena vositasidan foydalanadi. Bundan tashqari, salftkalar nafaqat odamlar uchun, balki, masalan, avtomobillar uchun ham turli maqsadlarda ishlab chiqariladi.

Ayni paytda mahsulotning asosiy qismi xorijdan keltiriladi, demak, agar ish jarayonlari to'g'ri tuzilgan bo'lsa, yangi ish boshlagan tadbirkor ham mo'may daromad qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.



Hozirgi kunda ushbu biznesning mashhurligi sabablari orasida bir nechta omillarni aytib o'tish mumkin:

shaxsiy gigiyena mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'zi mamlakatimiz hududida hali shakllanish bosqichida. Va shunga ko'ra, bozor uni shakllantirishda ishtirok etishga va bozordagi ish sharoitlariga moslashuvchan yondashishga tayyor bo'lgan yangi ishbilarmonlarni qabul qilishi mumkin.

Sanoatning o'zi juda xilma-xil bo'lib, nafaqat gigiyena salftkalarini, balki boshqa ko'plab turdagi mahsulotlarni, masalan, hojatxona qog'ozi yoki ayollar gigienik mahsulotlarini ishlab chiqarish qobiliyatiga ega.

Mutaxassislarning prognozlariga ko'ra, beqaror iqtisodiy vaziyatga qaramay, nam salftkalar bozori yildan-yilga jadal rivojlanib bormoqda va mahsulotning o'zi oxirgi iste'molchilar sonini ko'paytirmoqda. Ushbu mahsulotni sanoat miqyosida ishlab chiqarish mavjud bo'lmagan alohida mintaqalarni olsak, unda biz talabning oshishi haqida gapirishimiz mumkin.



Nam salftkalarining turlari

Ishlab chiqarishni boshlash uchun siz ma'lum bir mahsulot turini tanlashingiz mumkin, chunki foydalanish maqsadi va shunga mos ravishda nam salftkalarining turlari ko'p. Qaysi turni ishlab chiqarishingizni hal qilish kerak, chunki ko'plab tarkibiy qismlar bunga bog'liq bo'ladi. Masalan, tarqatish kanallari yoki narxning raqobatbardoshligi.

Gigienik salftkalar maqsadiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- tibbiy nam salftkalari;
- bolalar nam salftkalari;
- kosmetik nam salftkalari;
- tozalash nam salftkalari.

Bu turlarning barchasi, oz navbatida, kichik turlarga bo'linadi. Masalan, kosmetik nam salftkalar parfyumeriyali (makiyajni tozalash uchun, dezodorantlash uchun, tetiklantiruvchi, soqol olgandan keyin ishlatish uchun yumshatuvchi) va gigienik (antibakterial, qo'llarni tozalash uchun, intim joylar gigiyenasi uchun) bo'lishi mumkin.

Tozalovchi salftkalar ham maishiy (mebel uchun, plastik yuzalar uchun, ko'zgu va oynalar uchun, poyabzal uchun), avtomobil uchun (charm salonlar uchun, plastik qismlar uchun, yoki juda ifloslangan tutqichlar uchun), ixtisoslashgan (uy hayvonlari uchun, optika uchun) bo'lishi mumkin.



Nam salfetaklarning tarkiblari

Gigiyenik nam salfetaklar:

- Qo'llanish sohalari: bu salfetaklar odatda sayohat, piknik yoki ish joylarida foydalaniladi. Ular qo'llarni tezda tozalash uchun juda qulay.
- Tarkibi: ko'pincha suv, glitserin, aloe vera, va ba'zida yengil xushbo'y moddalarni o'z ichiga oladi. Ular terini quritmaydi va yumshoq qiladi.
- Foydali xususiyatlari: terini namlaydi va tozalaydi, xushbo'y hid bilan ta'minlaydi.

Bolalar uchun nam salfetaklar:

- Qo'llanish sohalari: chaqaloqlarning terisini tozalash va parvarish qilish uchun mo'ljallangan. Sayohatlarda va uyda kundalik parvarish paytida ishlatiladi.
- Tarkibi: terini tinchlantiruvchi va himoya qiluvchi ingredientlar, masalan, moychechak, vitamin E va o'simlik moylarini o'z ichiga oladi. Spirtsiz va gipoallergen bo'ladi.
- Foydali xususiyatlari: teri tirnashiga olib kelmaydi, yumshoq va sezgir teri uchun mos.

Antibakterial nam salfetaklar:

- Qo'llanish sohalari: ko'proq jamoat joylarida, ish joylarida, supermarketlarda va boshqa joylarda mikroblardan himoya qilish uchun ishlatiladi.
- Tarkibi: antibakterial moddalar, masalan, benzalkonium xlorid yoki etil spirtini o'z ichiga oladi. Spirtli va spirtsiz variantlari mavjud.
- Foydali xususiyatlari: qo'llarni va yuzalarni tezda dezinfeksiya qiladi, mikroblarni yo'q qiladi.

Kosmetik nam salfetaklar:

- Qo'llanish sohalari: makijajni olib tashlash, yuzni tozalash va terini parvarishlash uchun ishlatiladi.
- Tarkibi: yengil tozalovchi moddalar, vitaminlar (A, C, E), aloe vera, va ba'zida kollagen yoki antioksidantlar.
- Foydali xususiyatlari: yuzni tozalaydi, terini namlaydi va oziqlantiradi, ko'pincha yumshoq va xushbo'y hidga ega.

Avtomobil uchun nam salfetaklar:

- Qo'llanish sohalari: avtomobil ichki qismini, shu jumladan, rul, o'rindiqlar, panel va oynalarni tozalash uchun ishlatiladi.
- Tarkibi: tozalovchi va himoya qiluvchi moddalar, ba'zida antiseptik moddalarni o'z ichiga oladi.
- Foydali xususiyatlari: chang va kirlarni osonlik bilan tozalaydi, avtomobil ichki qismini yorqin va yangi holatda saqlaydi.

Ko'p maqsadli nam salfetaklar:

- Qo'llanish sohalari: uy-joy yoki ofisdagi yuzalarni, shu jumladan, mebel, eshik tutqichlari, va oshxona yuzalarini tozalash uchun ishlatiladi.
- Tarkibi: tozalovchi va dezinfeksiyalovchi moddalar, yengil xushbo'y moddalar.
- Foydali xususiyatlari: yuzalarni tozalaydi va dezinfeksiya qiladi, yomon hidlarni yo'q qiladi, uy-joy yoki ofisni toza va xushbo'y saqlaydi.

Har bir turdagi nam salfetaklar o'ziga xos xususiyatlari va qo'llanish sohalari bilan ajralib turadi, bu esa ularni turli maqsadlarda qo'llashni osonlashtiradi.



ISHLAB CHIQARISH UCHUN XOM-ASHYO TANLASH

1. Xom-ashyo materiallari:

eng qimmat salfetka turlari odatda ikki turdagi xom-ashyodan tayyorlanadi:

- **Spilence:** bu material to'qilmagan mato (non-woven) bo'lib, yumshoq va hajmli materialdir. Sellyuloza va poliestertolalaridan ishlab chiqariladi. Bunday tolalar ishlab chiqarishda kuchli suv bosimi yordamida bir-biriga bog'lanadi. Va uning o'ziga xos xususiyati shundaki, material ishlab chiqarishda teriga va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi yelim yoki boshqa kimyoviy zararli komponentlar ishlatilmaydi.

- **Airlaid:** "Spilence"dan farqli o'laroq, ular ignabargli daraxtlarning sellulozasidan tayyorlanadi. Ishlab chiqarish sellulozani 180 daraja haroratda issiq havo bilan puflanadigan biokomponent material bilan aralashtirishni o'z ichiga oladi. "Airlaid" materialining tuzilishi qalinroq va ko'proq namlikni ushlab turishga qodir. Yumshoqlik va namlikni uzoq vaqt ushlab turish kabi fazilatlarni oshirish uchun salfetkalariga paxta qo'shiladi.

- **Spunbond, chemicalbond va thermobond:** salfetkalarining arzon variantlarini ishlab chiqarish uchun ingichka to'qilgan tolalardan tayyorlangan ushbu materiallar ishlatiladi. Bular suyuqlikni kamroq ushlab turadi. Bunday materiallarning arzonligi tabiiy ravishda nafaqat yakuniy mahsulot narxiga, balki uning sifatiga ham ta'sir qiladi, bu esa nam salfetkalarining qimmatroq variantlaridan ancha past bo'ladi.

2. Suv:

- **Deionizatsiyalangan suv:** nam salfetkalarda ishlatiladigan suv deionizatsiyalangan yoki distillangan bo'lishi kerak. Bu suv toza bo'lib, unda mineral tuzlar, bakteriyalar yoki boshqa ifloslantiruvchi moddalar yo'q.

3. Namlikni saqlovchi moddalar:

- Glitserin: bu moddalar namlikni saqlash va terini yumshatish uchun ishlatiladi. Glitserin teriga foydali va gipoallergen hisoblanadi.

- Propilen glikol: namlikni saqlash uchun yana bir keng tarqalgan moddadir. U namlikni saqlash va salfetkalarining uzoq muddat nam bo'lib qolishiga yordam beradi.

4. Tozalovchi va parvarishlovchi moddalar:

- Aloe vera: aloe vera ekstrakti terini tinchlantirish va namlantirish uchun qo'shiladi. Bu moddalar gigiyenik va kosmetik salfetkalarda keng qo'llaniladi.

- Vitamin E: teri uchun antioksidant va himoya vositasi sifatida ishlatiladi.

- Moychechak ekstrakti: terini tinchlantiruvchi va yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega.

5. Antibakterial va konservantlar:

- Benzalkonium xlorid: antibakterial xususiyatlarga ega bo'lib, mikroblarni yo'q qiladi.

- Metilzotiazolinon va metilxlorizotiazolinon: bu konservantlar bakteriyalar va mikroblarning o'sishini oldini olish uchun ishlatiladi.

6. Xushbo'y moddalar:

- Tabiiy xushbo'y moddalar: tabiiy ekstraktlar va efir moylari, masalan, lavanda, limon va gul ekstraktlari.

- Sintetik xushbo'y moddalar: kimyoviy yo'l bilan ishlab chiqarilgan va mahsulotga xushbo'y hid beruvchi moddalar.

7. pH darajasini muvozanatlovchi moddalar:

- Sitrik kislota: bu modda pH darajasini saqlash uchun qo'shiladi. U teriga zarar qilmaslik uchun pH darajasini neytral yoki teriga mos qilib ushlab turadi.

Bu xom-ashyolar nam salfetkalarni sifatli va xavfsiz qilish uchun tanlanadi. Har bir xom-ashyo o'ziga xos xususiyatlari va foydalari bilan nam salfetkalarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Bir dona nam salfetka uchun kerakli xom-ashyo miqdorlari:

xom-ashyo materiallari:

- Spilence: 1.5 - 2 gramm
- Deionizatsiyalangan suv: 4 - 5 gramm

Namlikni saqllovchi moddalar:

- Glitserin: 0.2 - 0.3 gramm
- Propilen glikol: 0.1 - 0.2 gramm

Tozalovchi va parvarishlovchi moddalar:

- Aloe vera: 0.05 - 0.1 gramm
- Vitamin E: 0.02 - 0.05 gramm
- Moychechak ekstrakti: 0.01 - 0.03 gramm

Antibakterial va konservantlar:

- Benzalkonium xlorid: 0.01 - 0.03 gramm
- Metilzotiazolinon va metilxlorizotiazolinon: 0.005 - 0.01 gramm

Xushbo'y moddalar:

- Tabiiy yoki sintetik xushbo'y moddalar: 0.02 - 0.05 gramm
- pH muvozanatlovchi moddalar:
- Sitrik kislota: 0.005 - 0.01 gramm

Bu miqdorlar taxminiy bo'lib, mahsulot turiga va loyiha tashabbuskorining retsepturasiga qarab o'zgarishi mumkin. Nam salfetka tarkibi loyiha tashabbuskori tomonidan aniqlanadi va ularning talablariga muvofiq ravishda sozlanadi.



4.2. TEXNOLOGIYA VA REJALASHTIRISH

Nam salfetka ishlab chiqarish jarayoni bir nechta asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi, jumladan xom-ashyolarni tayyorlash, aralashtirish, salfetkalarni tayyorlash va qadoqlash. Quyida texnologiya va rejalashtirish bosqichlari haqida batafsil ma'lumot berilgan:

1. Xom-ashyolarni tayyorlash:

- Xom-ashyo materiallari (spilance, airlaid, spunbond) rulonlari kerakli o'lchamlarda kesiladi.
- Suv va boshqa suyuq komponentlar (glitserin, propilen glikol, aloe vera, vitamin E va boshqalar) tayyorlanadi va zaruriy holatda saqlanadi.


2. Eritma tayyorlash:

- Aralashtirish idishlarida suv va suyuq komponentlar (namlikni saqlovchi moddalar, tozalovchi va parvarishlovchi moddalar, antibakterial moddalar, xushbo'y moddalar, pH darajasini muvozanatlovchi moddalar) birlashtiriladi.



3. Matoni namlash:

- Kesilgan mato rulonlari maxsus mashinaga joylashtiriladi.
- Avtomatik tarzda mato aralashma bilan namlanadi. Bu jarayonda mato eritma bilan to'yinadi va kerakli namlik darajasiga yetkaziladi.



4. Kesish va qatlash:

- Namlangan mato keyingi bosqichga o'tib, kerakli o'lchamlarda kesiladi.
- Kesilgan salftkalar avtomatik mashinalar yordamida kerakli shaklda qatlanadi.

5. Qadoqlash:

- Tayyor salftkalar qadoqlash liniyasiga o'tkaziladi.
- Qadoqlash mashinalari yordamida salftkalar individual qadoqlarga joylashtiriladi.
- Qadoqlangan salftkalar keyinchalik to'plam yoki paketlarga joylashtiriladi.



Nam salftkalarini qadoqlash uskunasi

Ishlab chiqarilgan: Xitoy
 Shahar: Dongguan
 Kuchlanish: 220v 50hz
 Quvvat sarfi: 3,5kw/soat
 Xomashyo: BOP, OPP, PE, HDPE LDPE
 Qadoq material kengligi MAX: 430mm
 Tayyor qadoq o'lchami MAX: Kengligi 170mm Uzunligi 280mm
 balandligi 80mm
 Mahsulot bukish usuli: N Cross
 Qadoqlash tezligi: 20-70 dona/daqqa
 Funktsiyalari: Qadoqlash sanasini qo'yadi, salftka qadog'iga olish uchun teshik ochadi, Yopishqoq yorliq yopishtiradi

Qadoqlash uskunasi

6. Yakuniy tekshiruv va nazorat:

- Qadoqlangan mahsulot sifat nazorati bo'limi tomonidan tekshiriladi.
- Mahsulotlar tekshiruvdan o'tgandan so'ng, omborlarga joylashtiriladi va yetkazib berishga tayyorlanadi.

Nam salftka ishlab chiqarish murakkab jarayon bo'lib, texnologiya va rejalashtirish bosqichlarini aniq va samarali amalga oshirishni talab etadi. Bu bosqichlar mahsulot sifatini va iste'molchilar talablarini qondirish uchun muhimdir.



Loyihaning ishlab chiqarish dasturi uskunaning ishlab chiqarish quvvati va loyihaning ishlash rejimidan hisoblab chiqilgan.

To'liq quvvat bilan ishlash uskunalari.

Nomlanishi	O'lchov birligi	Maksimal ishlab chiqarishdagi soni	Sotish narxi (ming so'm)	Summasi (ming so'm)
Nam salfetka 15 talik	dona	5 440 000	1,45	7 888 000

Liniyani boshqarish va optimallashtirish:

ishchilarning malakasini oshirish: ishchilarga mashinalar va texnologik jarayonlar bo'yicha treninglar o'tkazish.

sifat nazorati: har bir bosqichda mahsulot sifatini tekshirish va kamchiliklarni bartaraf etish.

texnik xizmat ko'rsatish: uskunalariga muntazam texnik xizmat ko'rsatish orqali uskunalarining uzoq muddat ishlashini ta'minlash.

Nam salfetkalar ishlab chiqarish liniyasi:

yuqori samarali va sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash uchun yaxshi rejalashtirilgan va avtomatlashtirilgan bo'lishi kerak. Bu jarayonlar va uskunalar orqali kompaniya yuqori sifatli nam salfetkalar ishlab chiqarishi mumkin.



5. INFRASTRUKTURA



5. INFRASTRUKTURA

Ushbu loyihada qurilish montaj ishlari amalga oshirilmaydi. Loyihani amalga oshirish uchun maqbul joydan, bino ijaraga olinadi va bu binoni uskunalarni joylashtirish uchun moslashtirish kerak bo'ladi.


Ushbu loyihani amalga oshirish uchun joy tanlash alohida e'tibor talab qilmaydi. Nam salfetskalar ishlab chiqarish atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, shuningdek, uskunalarining shovqini past bo'lganligi uchun ishlab chiqarishni aholi yashash joylaridan chetqda yoki alohida sanoat zonolari hududida joylashtirish talab etilmaydi. Ishlab chiqarishni tashkil etishni barcha havfsizlik talablari bajarilgan taqdirda amalga oshirish mumkin.

Bundan tashqari, ushbu hudud 380V li elektr energiyasi va suv ta'minoti bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

Nam salfetskalar ishlab chiqarish loyihasining infrastrukturasini rejalashtirishda bir nechta asosiy elementlarni ko'rib chiqish kerak. Quyida ishlab chiqarish jarayonini samarali va sifatli bajarish uchun zarur bo'lgan infratuzilma komponentlari haqida batafsil ma'lumot berilgan:

1. Bino va imoratlar:

- Ishlab chiqarish sexi: ishlab chiqarish jarayonlari amalga oshiriladigan asosiy joy. Bu yerda nam salfetkalarini tayyorlash, kesish, qatlash va qadoqlash uchun zarur bo'lgan uskunalar joylashtiriladi.
- Omborxona: xom-ashyo va tayyor mahsulotlarni saqlash uchun mo'ljallangan. Omborxona harorat va namlik nazorati ostida bo'lishi kerak.
- Laboratoriya: sifat nazorati va mahsulotni sinovdan o'tkazish uchun zarur. Bu yerda mahsulotlarning sifatini tekshirish va yangi formulalarni sinovdan o'tkazish mumkin.
- Ofis joylari: ma'muriy ishlar uchun ofis joylari. Bu yerda menejment, marketing, sotuvlar va boshqa idoralar joylashgan bo'ladi.



2. Kommunikatsiya va texnik xizmatlar:

- Elektr ta'minoti: ishlab chiqarish jarayonlari uchun zarur bo'lgan elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlanishi kerak.
- Suv ta'minoti: eritma tayyorlash va boshqa ishlab chiqarish jarayonlari uchun toza suv ta'minoti.
- Ventilyatsiya va konditsioner tizimlari: ishlab chiqarish sexi va omborxonalarda optimal harorat va namlik darajasini ta'minlash.
- Kanalizatsiya va chiqindi boshqaruvi: ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni to'g'ri boshqarish va utilizatsiya qilish tizimi.




3. Logistika va transport:

- Transport vositalari: xom-ashyo va tayyor mahsulotlarni tashish uchun yuk mashinalari va boshqa transport vositalari zarur bo'lishi mumkin.
- Yuk tushirish va yuklash joylari: omborxona va ishlab chiqarish sexida yuk tushirish va yuklash joylari.



4. Kadrlar va xavfsizlik:

- Transport vositalari: xom-ashyo va tayyor mahsulotlarni tashish uchun yuk mashinalari va boshqa transport vositalari zarur bo'lishi mumkin.
- Yuk tushirish va yuklash joylari: omborxona va ishlab chiqarish sexida yuk tushirish va yuklash joylari.



6. MARKETING KONSEPSIYASI



6. MARKETING KONSEPSIYASI

Zamonaviy dunyoda loyiha faqat iste'molchilarning talablarini e'tiborsiz qoldirmasa, muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Talablarni tadqiq qilish va mijozlarning maksimal talablarini qondirish samaradorligini oshirish uchun yangi mijozlarni qo'lga kiritishni, hamda mavjud mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni, mahsulot yetkazib berishni davom ettirmoqchi bo'lgan tadbirkor, ular haqiqatan ham nimani xohlashlarini va ularga nima kerakligini bilishi kerak.

Bozorni segmentatsiya qilish turli xil obyektlar bo'yicha amalga oshiriladi, ammo marketingda eng katta e'tibor iste'molchilarning xohishlariga qaratiladi. Shu bilan iste'molchilar tashkilotning marketing harakatlariga turli xil qarashlari bo'yicha bozorni segmentatsiya qilishi kerak bo'ladi.

Bozor segmenti – o'xshash afzalliklarga ega bo'lgan, bir xil xususiyatlarga xos va marketing takliflariga bir xil javob beradigan iste'molchilar majmui.

Taklif tuzilmasidan kelib chiqib, bozorning quyidagi makrosegmentlarini ajratish kerak:

- iste'mol bozori
- sanoat bozori.

Iste'mol bozori. Bizning ushbu segmentdagi iste'molchilarimiz respublikaning turli yoshdagi, har xil daromad darajasi va oilaviy ahvoli turlicha bulgan barcha aholisidir.

O'zbekiston aholisi soni bo'yicha MDH mamlakatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. BMT Aholishunoslik jamg'armasining jahon reytingida respublika 41-o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 2024-yil 22-aprel holatiga 37 milliondan ortiq kishini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, aholi daromadlari o'sishda davom etmoqda.

O'zbekiston bozorida raqobatchi bo'lgan ko'p sonli mahalliy korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, biroq ichki va tashqi bozorda ushbu mahsulotga talab yuqori. Shuning uchun keskin raqobat kuzatilmaydi.

7. ISHLAB CHIQARISH REJASI



7. ISHLAB CHIQARISH REJASI

Loyihani samarali amalga oshirish uchun loyiha tashabbuskori quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi:

1. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish;
2. Loyiha texnik-iqtisodiy asoslarini, moliyaviy hisob-kitoblarini va marketing strategiyalarini ishlab chiqish;
3. Loyiha tashabbuskori yuridik shaxs sifatida tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish;
4. Uskunalar yetkazib beruvchi, uskunalarni o'rnatuvchi, xom-ashyo va boshqa mol yetkazib beruvchi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish;
5. Kredit tashkilotlari bilan muzokaralar o'tkazish va moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
6. Loyihani moliyalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish va bankka taqdim etish;
7. Bank tomonidan moliyalashtirishning ochilishi;
8. Ishlab chiqarish binosi ta'mirini yakunlash, uskunalarni o'rnatish, xom-ashyolarni qabul qilib olish;
9. Ishlab chiqarishni boshlash;
10. Sotishni tashkil qilish.

